Kurbosheva Mohira Xafizovna	
MURAKKAB LOYIHALARDA RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	1439
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
ЭФФЕКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТЬЮ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	1442
Камолова Феруза Кахрамоновна	
O'ZBEKISTON HUDUDIY RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK YO'NALISHLARI.....	1448
Ma'murov Baxtiyor Xolmatjanovich	



O'ZBEKISTON HUDUDIIY RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK YO'NALISHLARI

Ma'murov Baxtiyor Xolmatjanovich

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi katta ilmiy xodimi
Oriental universiteti dotsenti PhD, dots.

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston hududiy rivojlanish strategiyasini takomillashtirishning metodologik yo'nalishlari ilmiy-nazariy va empirik asosda yoritildi. Tadqiqotda hududiy rivojlanish darajasi kompleks baholanib, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar yalpi hududiy mahsulot, sanoat, investitsiya faolligi, xizmatlar sektori hamda demografik resurslar kesimida tahlil qilindi. Natijalar hududiy notekislikning saqlanib qolayotganini, iqtisodiy diversifikatsiya va investitsiya konsentratsiyasi "o'sish markazlari" hamda nisbatan past rivojlangan hududlar o'rtasidagi farqlarni kuchaytirishini ko'rsatdi. Shuningdek, hududiy siyosat samaradorligini oshirish uchun institutsional, iqtisodiy va demografik omillarni uyg'unlashtiruvchi integratsion metodologik model taklif etilib, differensial strategik yondashuvning ustuvorligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Kalit so'zlar: hududiy rivojlanish, hududiy tafovutlar, integratsion siyosat, iqtisodiy diversifikatsiya, investitsiya faolligi, institutsional muhit, aqlli ixtisoslashuv, inson kapitali.

Abstract. This article examines methodological directions for improving Uzbekistan's territorial development strategy through a combined theoretical and empirical approach. Territorial development is assessed using a composite framework, while interregional socio-economic disparities are analyzed across gross regional product, industrial output, investment activity, the services sector, and demographic resources. The findings indicate persistent spatial unevenness: higher diversification and investment concentration tend to widen gaps between "growth centers" and relatively less developed regions. An integrative methodological model is proposed, linking institutional, economic, and demographic determinants, and the priority of a differentiated strategic approach is substantiated.

Key words: regional development, regional disparities, integrative policy, economic diversification, investment activity, institutional environment, smart specialization, human capital.

Аннотация. В статье раскрываются методологические направления совершенствования стратегии территориального развития Узбекистана на основе теоретико-эмпирического анализа. Оценка уровня территориального развития выполнена комплексно, а межрегиональные социально-экономические различия проанализированы по показателям валового регионального продукта, промышленности, инвестиционной активности, сектора услуг и демографических ресурсов. Результаты подтверждают сохранение пространственной неоднородности: экономическая диверсификация и концентрация инвестиций усиливают различия между «центрами роста» и относительно менее развитыми территориями. Предложена интеграционная методологическая модель, объединяющая институциональные, экономические и демографические детерминанты, и обоснована приоритетность дифференцированного стратегического подхода.

Ключевые слова: региональное развитие, региональные различия, интеграционная политика, экономическая диверсификация, инвестиционная активность, институциональная среда, умная специализация, человеческий капитал.

KIRISH

Hududiy rivojlanish strategiyasini takomillashtirish masalasi zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u mamlakat iqtisodiy o'sishining barqarorligi va hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish bilan chambarchas bog'liqdir. So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar chuqurlashuvi, hududiy boshqaruv tizimining modernizatsiyasi hamda investitsiya siyosatining faollashuvi natijasida hududiy rivojlanishning umumiy ijobiy dinamikasi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, hududlar kesimida iqtisodiy salohiyat, ishlab chiqarish tuzilmasi, investitsiya faolligi va demografik resurslar bilan ta'minlanganlik



darajasi turlicha shakllanayotgani hududiy rivojlanish strategiyalarini takomillashtirishni dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylantirmoqda.

Hududiy iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining notekisligi global miqyosda ham kuzatiladigan hodisa bo'lib, u hududlarning institutsional muhit sifati, iqtisodiy diversifikatsiya darajasi, infratuzilma rivoji va inson kapitali salohiyati bilan belgilanadi. O'zbekiston sharoitida ayrim hududlar iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini namoyon etayotgan bo'lsa, boshqalarida investitsiya oqimlarining cheklanganligi va tarmoq tuzilmasining monotarmoq xususiyatga egaligi iqtisodiy modernizatsiya jarayonlarini sekinlashtirmoqda. Natijada hududiy iqtisodiy makonda "o'sish markazlari" va nisbatan sust rivojlanayotgan hududlar o'rtasidagi tafovutlar saqlanib qolmoqda.

Mazkur sharoitda hududiy rivojlanish strategiyasini takomillashtirishning metodologik asoslarini aniqlash, hududiy rivojlanishga ta'sir etuvchi institutsional, iqtisodiy va demografik omillarni kompleks baholash hamda ularni integratsiyalashgan model asosida umumlashtirish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Shuning uchun tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston hududiy rivojlanish strategiyasini takomillashtirishning metodologik yo'nalishlarini asoslab berish va hududlar o'rtasidagi rivojlanish tafovutlarini kamaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish masalasi zamonaviy mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qoraladi. So'nggi yillarda hududiy rivojlanishning metodologik asoslari iqtisodiy o'sish omillari, hududiy tafovutlar, institutsional muhit va strategik rejalashtirish mexanizmlarining o'zaro uyg'unligi nuqtai nazaridan keng tadqiq etilmoqda. Mazkur yondashuv hududlarni rivojlantirishda yagona universal model mavjud emasligini, balki har bir hududning resurs salohiyati va institutsional xususiyatlariga mos differensial strategiyalar zarurligini ko'rsatadi (Storper, 2018).

Hududiy rivojlanish strategiyasini shakllantirishda institutsional omillarning roli alohida e'tirof etiladi. Rodrik (2017) o'z tadqiqotlarida iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi ko'p jihatdan samarali institutlar, tartibga solish mexanizmlari va davlat boshqaruvi sifatiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, hududiy siyosatning muvaffaqiyati resurslarni to'g'ri taqsimlashdan ko'ra, ularni boshqaruvchi institutlarning moslashuvchanligi va samaradorligiga ko'proq bog'liqdir. Shu bois hududiy strategiyalarni ishlab chiqishda institutsional muhitni takomillashtirish muhim metodologik yo'nalish sifatida qoraladi.

Mintaqaviy iqtisodiy tafovutlar va ularni qisqartirish masalasi ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. McCann (2016) hududlar o'rtasidagi rivojlanish farqlari nafaqat iqtisodiy resurslar bilan, balki boshqaruv sifati, infratuzilma rivoji va mahalliy siyosatning samaradorligi bilan bog'liqligini asoslab beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish uchun markazlashgan yondashuvdan ko'ra hududiy xususiyatlarni inobatga oluvchi moslashuvchan strategiyalar samaraliroq hisoblanadi.

Hududiy rivojlanish strategiyasining metodologik asoslarini shakllantirishda "aqlli ixtisoslashuv" (smart specialization) konsepsiyasi ham muhim o'rin tutadi. Foray (2018) ushbu yondashuvni hududiy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va innovatsion salohiyatni safarbar etishning samarali vositasi sifatida talqin etadi. Unga ko'ra, hududning raqobatbardoshligi mavjud resurslar hajmi bilan emas, balki ularning strategik yo'naltirilgan holda uyg'un rivojlantirilishi bilan belgilanadi. Bu esa hududiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda ilmiy asoslangan ixtisoslashuv modelini qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda hududiy boshqaruv va strategik rejalashtirish jarayonlarining integratsiyalashgan yondashuvlari ham tadqiq etilmoqda. Barca (2019) hududiy siyosat samaradorligi hududiy boshqaruv institutlari, mahalliy manfaatdor tomonlar va strategik rejalashtirish mexanizmlarining uyg'un hamkorligiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, hududiy rivojlanish strategiyasi yuqoridan pastga qarab qabul qilinadigan hujjat emas, balki hududiy manfaatdor subyektlar ishtirokida shakllanadigan dinamik boshqaruv modeli bo'lishi lozim.

Hududiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar integratsiyasi ham muhim metodologik yo'nalish sifatida qoraladi. Crescenzi va Rodriguez-Pose (2016) hududiy o'sish jarayonlari inson kapitali sifati, migratsiya oqimlari va mehnat bozori holati bilan chambarchas bog'liqligini empirik tadqiqotlar asosida ko'rsatib beradi. Mualliflar hududiy strategiyalarni ishlab chiqishda faqat ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga emas, balki demografik va ijtimoiy omillarga ham kompleks yondashuv zarurligini asoslaydi.

Shuningdek, hududiy rivojlanish strategiyasining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda iqtisodiy diversifikatsiya masalasi muhim ilmiy muammo sifatida ko'rib chiqiladi. Boschma (2017) hududiy iqtisodiyotning bir yoki ikki tarmoqqa qaramligi uning tashqi shoklarga nisbatan zaifligini kuchaytirishini qayd etadi. Shu sababli muallif hududiy strategiyalarni ishlab chiqishda iqtisodiy tuzilmani diversifikatsiya qilish va yangi o'sish nuqtalarini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi.



Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar hududiy rivojlanish strategiyasini takomillashtirish metodologiyasi kompleks va ko'p qatlamli jarayon ekanini ko'rsatadi. Tadqiqotlar hududiy rivojlanish samaradorligi institutsional muhit, iqtisodiy diversifikatsiya, aqlli ixtisoslashuv, inson kapitali va hududiy boshqaruv mexanizmlarining o'zaro uyg'unligiga bog'liqligini tasdiqlaydi. Shu jihatdan, O'zbekiston hududiy rivojlanish strategiyasini takomillashtirishda mazkur nazariy yondashuvlarni integratsiyalashgan holda qo'llash ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi hududiy rivojlanish darajasini kompleks baholash va uning determinantlarini aniqlashga qaratilgan tizimli yondashuvga asoslanadi. Unda rasmiy statistik ma'lumotlar bazasi asosida qiyosiy, dinamik va tarkibiy tahlil usullari qo'llanilib, yalpi hududiy mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi, investitsiya faolligi, bandlik va demografik ko'rsatkichlar o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Shuningdek, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash uchun kompleks indekslash, ulushlar tahlili hamda diversifikatsiya darajasini baholash usullaridan foydalanildi. Institutsional, iqtisodiy va demografik omillarning hududiy rivojlanishga ta'siri integratsion metodologik model asosida tizimli ravishda umumlashtirilib, ularning o'zaro funksional aloqalari ilmiy asosda talqin qilindi.

TAHLIL NATIJALAR

Hududiy rivojlanish darajasining kompleks bahosi mamlakat hududlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining farqlanishini aniqlashda muhim metodologik vosita hisoblanadi. Kompleks yondashuv hududiy rivojlanishni yalpi hududiy mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi, bandlik, demografik ko'rsatkichlar hamda investitsiya faolligi kabi o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimi asosida baholashni nazarda tutadi. Statistik ma'lumotlar tahlili hududiy rivojlanish jarayonlari mamlakat bo'yicha barqaror ijobiy dinamikaga ega bo'lsa-da, hududlar kesimida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2015-2024-yillar davomida yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari respublika bo'yicha o'rtacha 101,6-108,2 foiz oralig'ida shakllangan bo'lib, bu iqtisodiy o'sishning barqaror tendensiyasini ifodalaydi. Shu bilan birga, hududlar kesimida yalpi hududiy mahsulot o'sish sur'atlari turlicha shakllangan: ayrim viloyatlarda o'sish sur'atlari yuqori bo'lsa, boshqalarida nisbatan past darajada qayd etilgan. Bu esa hududiy iqtisodiy rivojlanishning notekis xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Hududlar o'rtasidagi tafovutlar yalpi hududiy mahsulot hajmlarining mutlaq miqdorlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, iqtisodiy salohiyati yuqori hududlar qatorida Toshkent shahri va Toshkent viloyati yetakchi o'rinni egallab, yalpi hududiy mahsulot hajmi bo'yicha boshqa hududlardan ancha yuqori natijalarni ko'rsatgan. Aksincha, ayrim viloyatlarda yalpi hududiy mahsulot hajmi nisbatan past darajada shakllangan bo'lib, bu hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasining differensialligini ifodalaydi.

Hududiy tafovutlarning shakllanishida sanoat ishlab chiqarishining hududiy taqsimlanishi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Statistik ma'lumotlar sanoat ishlab chiqarish indeksining hududlar kesimida turlicha o'zgarib borishini ko'rsatadi. Ayrim hududlarda sanoat ishlab chiqarishining yuqori o'sish sur'atlari kuzatilgan bo'lsa, boshqa hududlarda o'sish nisbatan past darajada qayd etilgan. Bu holat hududiy iqtisodiy rivojlanishning tarmoq tuzilmasi va ishlab chiqarish salohiyati bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Kompleks baholash natijalari hududiy rivojlanish darajasiga demografik omillar ham sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Doimiy aholi sonining barqaror o'sib borishi va iqtisodiyotda band aholining yillik o'rtacha sonining o'zgarishi hududiy mehnat resurslari salohiyatining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Aholi sonining 2015-2024-yillarda barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lishi hududiy iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlovchi muhim demografik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Kompleks tahlil hududiy rivojlanish darajasi O'zbekistonda barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, hududlar kesimida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu tafovutlar hududlarning iqtisodiy salohiyati, sanoat va xizmatlar sektorining rivojlanish darajasi, investitsiya faolligi hamda demografik resurslar bilan ta'minlanganligi bilan izohlanadi. Shuning uchun hududiy rivojlanish strategiyasini takomillashtirishda yagona standart yondashuvdan voz kechib, hududlarning resurs salohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga oluvchi differensial strategik yondashuvni qo'llash ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Hududlar kesimida yalpi hududiy mahsulot hajmlari va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari tahlili O'zbekistonda hududiy rivojlanish darajasi notekis shakllanayotganini ko'rsatadi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi bo'yicha Toshkent shahri 171,7 trln so'mdan ortiq ko'rsatkich bilan yetakchi o'rinni egallagan, Toshkent viloyati esa 138,6 trln so'm atrofidagi natija bilan ikkinchi pog'onada joylashgan. Ushbu hududlar mamlakat iqtisodiy makonida eng yuqori iqtisodiy konsentratsiya markazlari sifatida ajralib turadi.



Bunga nisbatan, Xorazm va Sirdaryo viloyatlarida yalpi hududiy mahsulot hajmi ancha past shakllangan bo'lib, 2024-yilda mos ravishda qariyb 28,4 trln so'm va 20,1 trln so'm atrofida qayd etilgan. Ushbu tafovutlar hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasi bir xil emasligini va mamlakat hududlari o'rtasida iqtisodiy imkoniyatlar sezilarli farqlanishini ko'rsatadi. Natijada hududiy iqtisodiy makonda "o'sish markazlari" va "periferik hududlar" o'rtasidagi tafovutlar saqlanib qolmoqda.

Iqtisodiy rivojlangan hududlar tahlili ushbu hududlarda iqtisodiyotning ko'p tarmoqli tuzilmasi shakllanganini ko'rsatadi. Xususan, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida sanoat, xizmatlar va yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi faoliyat turlari parallel rivojlanib, iqtisodiy diversifikatsiya darajasini oshirgan. 2024-yilda respublika bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 827 trln so'mdan ortiqni tashkil etgan bo'lib, ushbu xizmatlarning asosiy qismi aynan iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarda jamlangan.

Shuningdek, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida sanoat, xizmatlar va qishloq xo'jaligi tarmoqlarining o'zaro uyg'un rivojlanishi kuzatiladi. Bu hududlarda tarmoqlararo muvozanat iqtisodiy tizimning barqarorligini ta'minlab, hududiy iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarda shakllanishiga xizmat qilmoqda. Diversifikatsiya darajasining yuqoriligi ushbu hududlarda tashqi iqtisodiy omillar ta'siriga nisbatan moslashuvchanlikni kuchaytiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Nisbatan past rivojlangan hududlar tahlili investitsiya va ishlab chiqarish salohiyati hududlar kesimida bir xil shakllanmaganligini ko'rsatadi. Xususan, Surxondaryo, Sirdaryo va Qoraqalpog'iston Respublikasida iqtisodiy faoliyatning asosiy qismi an'anaviy tarmoqlarga to'g'ri kelib, yuqori texnologiyali sanoat va xizmatlar sektori yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa investitsiya oqimlarining nisbatan cheklanganligi bilan bog'liq bo'lib, hududiy iqtisodiy o'sish sur'atlarining pastroq shakllanishiga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, ushbu hududlarda institutsional infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ham strategik rivojlanish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hududiy boshqaruv samaradorligi, biznes yuritish sharoitlari va infratuzilma ta'minotining nisbatan sust rivojlanganligi investitsiya jalb etish imkoniyatlarini cheklaydi. Natijada, iqtisodiy modernizatsiya jarayonlari sekinlashib, hududlar o'rtasidagi rivojlanish tafovutlari saqlanib qolmoqda.

Quyidagi jadval hududiy rivojlanishga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillarning hududlar kesimida tarkibiy o'zgarishlarini baholash imkonini beradi. Unda 2022 va 2024-yillarda hududlarning yalpi ichki mahsulot, sanoat mahsuloti, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hamda asosiy kapitalga investitsiyalar ulushidagi o'zgarishlar aks ettirilgan. Mazkur ko'rsatkichlar hududiy iqtisodiy tuzilmaning diversifikatsiya darajasi, investitsiya faolligi va ishlab chiqarish ixtisoslashuvi kabi omillar orqali hududiy rivojlanish natijalariga bevosita ta'sir etishini ifodalaydi. Shu bois jadval ma'lumotlari hududiy rivojlanishning iqtisodiy determinantlarini tizimli tahlil qilishda muhim empirik asos bo'lib xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Hududiy rivojlanishga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillarning hududlar kesimida tarkibiy ulushlari¹, %

Hudud	Yalpi ichki mahsulot ulushi			Sanoat mahsuloti ulushi			Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi			Asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi		
	2022	2024	Farqi	2022	2024	Farqi	2022	2024	Farqi	2022	2024	Farqi
O'zbekiston Resp.	100	100	-	100	100	-	100	100	-	100	100	-
Qoraqalpog'iston	3,4	3,1	-0,3	3,2	2,8	-0,4	4,0	3,8	-0,2	3,9	4,1	0,2
Andijon	6,1	6,2	0,1	9,8	10,3	0,5	10,3	10,0	-0,3	5,4	5,6	0,2
Buxoro	5,2	4,9	-0,3	4,9	4,8	-0,1	9,3	8,9	-0,4	8,1	10,2	2,1
Jizzax	3,1	3,0	-0,1	2,1	2,8	0,7	6,7	6,4	-0,3	3,9	4,6	0,7
Qashqadaryo	5,6	5,5	-0,1	4,1	4,4	0,3	9,2	9,5	0,3	6,0	7,0	1,0
Navoiy	7,5	8,1	0,6	15,3	16,5	1,2	4,5	4,7	0,2	6,7	6,6	-0,1
Namangan	4,6	4,7	0,1	3,3	3,6	0,3	7,6	7,7	0,1	5,5	10,7	5,2
Samarqand	7,0	6,9	-0,1	5,3	5,2	-0,1	11,6	12,3	0,7	7,1	5,7	-1,4
Surxondaryo	3,9	3,7	-0,2	1,3	1,6	0,3	7,6	7,8	0,2	4,3	3,3	-1,0
Sirdaryo	2,0	1,9	-0,1	2,2	2,3	0,1	3,5	3,4	-0,1	4,6	2,2	-2,4
Toshkent	10,5	10,1	-0,4	17,0	15,7	-1,3	9,7	9,5	-0,2	13,4	14,4	1,0
Farg'ona	6,3	6,3	0	5,5	5,2	-0,3	9,3	9,4	0,1	5,8	4,2	-1,6
Xorazm	3,6	3,5	-0,1	3,3	3,2	-0,1	6,8	6,5	-0,3	3,3	3,1	-0,2
Toshkent shahri	16,6	19,3	2,7	19,7	19,5	-0,2	0,0	0,1	0,1	21,4	18,1	-3,3

¹ Muallif tomonidan Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan



Jadval ma'lumotlari hududiy rivojlanish jarayonlarida iqtisodiy omillar ta'siri turlicha namoyon bo'layotganini ko'rsatadi. Xususan, Toshkent shahri yalpi ichki mahsulot ulushining 16,6 foizdan 19,3 foizga oshishi hududiy iqtisodiy faollikning yuqori konsentratsiyalashganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Navoiy viloyatida sanoat mahsuloti ulushining 15,3 foizdan 16,5 foizga o'sishi hududning sanoat ixtisoslashuvi kuchayib borayotganini ifodalaydi. Bu holat iqtisodiy diversifikatsiya darajasi yuqori hududlarda ishlab chiqarish salohiyati barqaror shakllanishini ko'rsatadi.

Boshqa tomondan, Sirdaryo viloyatida investitsiyalar ulushining 4,6 foizdan 2,2 foizga kamayishi va Samarqand viloyatida investitsiya ulushining pasayishi hududiy rivojlanishda investitsiya faolligi muhim determinant ekanini ko'rsatadi. Namangan viloyatida investitsiyalar ulushining 5,5 foizdan 10,7 foizga keskin oshishi esa hududiy iqtisodiy o'sishning yangi investitsion manbalar hisobiga jadallashayotganini anglatadi. Umuman olganda, jadval ma'lumotlari hududiy rivojlanish natijalari institutsional sharoitlar bilan bir qatorda iqtisodiy tuzilmaning diversifikatsiya darajasi va investitsiya resurslarining hududlar kesimida taqsimlanishiga bevosita bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Hududiy rivojlanish natijalarini kompleks baholash shuni ko'rsatadiki, hududlar iqtisodiy o'sish sur'atlari faqat ishlab chiqarish hajmi yoki investitsiya ko'rsatkichlari bilan emas, balki institutsional muhit, iqtisodiy tuzilma va demografik resurslar uyg'unligi bilan belgilanadi. Tahlillar hududiy rivojlanish jarayonlari ko'p omilli tizim sifatida shakllanishini tasdiqlaydi. Bunda boshqaruv sifati, iqtisodiy diversifikatsiya darajasi va mehnat resurslari tarkibi hududiy iqtisodiy faollikning asosiy determinantlari sifatida namoyon bo'ladi (2-jadval).

2-jadval. Hududiy rivojlanish natijalariga ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimi²

Omil guruhi	Asosiy ko'rsatkichlar	Hududiy rivojlanishga ta'sir mexanizmi	Konseptual iqtisodiy talqin
Institutsional omillar	Hududiy boshqaruv sifati, tartibga solish mexanizmlarining samaradorligi, investitsiya muhitining barqarorligi, "yagona darcha" tizimi rivoji	Institutsional muhit resurslarni taqsimlash va iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini belgilaydi; boshqaruv sifati oshishi bilan hududiy investitsion jozibadorlik va iqtisodiy faollik ortadi	Institutsional iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, samarali institutlar tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi va hududiy iqtisodiy tizimning uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlaydi
Iqtisodiy omillar	Iqtisodiy diversifikatsiya darajasi, sanoat mahsulotlari ulushi, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, xizmatlar sektori rivoji	Tarmoqlararo muvozanat va investitsiya oqimlari hududiy ishlab chiqarish bazasini kengaytiradi, yangi o'sish nuqtalarini shakllantiradi va iqtisodiy tizimning tashqi shoklarga barqarorligini oshiradi	Strukturaviy o'sish nazariyasiga muvofiq, diversifikatsiyalashgan iqtisodiy tuzilma hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytiradi, monotarraq ixtisoslashuv esa iqtisodiy xatarlarni oshiradi
Demografik omillar	Mehnatga layoqatli aholi ulushi, bandlik darajasi, demografik dividend (SR ko'rsatkichi), inson kapitali sifati	Mehnat resurslari salohiyati va bandlik darajasi ishlab chiqarish hajmi, xizmatlar sektori kengayishi va innovatsion faollikni rag'batlantiradi	Demografik o'sish nazariyasiga ko'ra, mehnatga layoqatli aholi ulushining yuqoriligi hududiy iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri bo'lib, inson kapitali sifati barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi

Mazkur jadval hududiy rivojlanish natijalari ko'p omilli va tizimli xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Institutsional omillar hududiy iqtisodiy tizimning tashkiliy asosini shakllantirib, investitsiya muhitini barqarorlashtiradi va iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshiradi. Boshqaruv sifati yuqori bo'lgan hududlarda iqtisodiy loyihalarning tezkor amalga oshirilishi va resurslardan samarali foydalanish natijasida hududiy iqtisodiy faollik darajasi nisbatan yuqori shakllanadi.

2 Muallif tomonidan shakllantirilgan



Iqtisodiy omillar esa hududiy rivojlanishning bevosita o'sish drayverlari sifatida namoyon bo'ladi. Tarmoqlar tarkibining diversifikatsiyalashganligi, investitsiya resurslarining yetarli hajmda jalb etilishi va sanoat ulushining ortib borishi hududiy iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlaydi. Demografik omillar esa ushbu jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy bazasini shakllantirib, mehnat resurslari salohiyati va inson kapitali sifati orqali hududiy rivojlanishning uzoq muddatli trajektoriyasini belgilaydi. Shu tariqa, hududiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda institutsional, iqtisodiy va demografik omillarni integratsiyalashgan holda hisobga olish ilmiy-metodologik jihatdan eng maqbul yondashuv hisoblanadi.

Institutsional muhit hududiy rivojlanishning asosiy tashkiliy platformasi sifatida namoyon bo'ladi. Hududiy boshqaruv tizimining samaradorligi investitsiya jalb qilish, biznes muhitini yaxshilash va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, iqtisodiy faolligi yuqori hududlarda korxonalar va tashkilotlar sonining nisbatan yuqori konsentratsiyasi kuzatiladi, bu esa institutsional infratuzilmaning rivojlanganligi bilan izohlanadi. Bunday hududlarda "yagona darcha" tamoyiliga asoslangan boshqaruv mexanizmlari iqtisodiy loyihalarni tezkor amalga oshirish imkonini yaratadi.

Aksincha, institutsional muhit yetarli rivojlanmagan hududlarda iqtisodiy faollik darajasi past shakllanadi. Bunda tartibga solish mexanizmlarining murakkabligi, infratuzilma ta'minotining cheklanganligi va boshqaruv samaradorligining pastligi investitsiya jarayonlarini sekinlashtiradi. Natijada hududiy rivojlanish sur'atlari barqaror emasligi kuzatiladi. Shu sababli hududiy strategiyalarni ishlab chiqishda institutsional islohotlarni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash muhim metodologik xulosa hisoblanadi.

Hududiy rivojlanishga ta'sir etuvchi eng muhim determinantlardan biri iqtisodiy tuzilmaning diversifikatsiya darajasidir. Tarmoqlar tarkibi diversifikatsiyalashgan hududlarda iqtisodiy o'sish barqaror va tashqi iqtisodiy shoklarga nisbatan chidamli bo'ladi. Xususan, sanoat, xizmatlar va investitsiya faoliyati uyg'un rivojlangan hududlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari nisbatan yuqori shakllanishi kuzatiladi. Bu hududlarda iqtisodiy faoliyatning bir nechta tarmoqlarga taqsimlanganligi iqtisodiy xavflarni kamaytiradi va barqaror rivojlanish imkonini oshiradi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, iqtisodiy faoliyati asosan bitta yoki ikkita tarmoqqa ixtisoslashgan hududlarda iqtisodiy o'sish o'zgaruvchan bo'lishi kuzatiladi. Monotarmoq iqtisodiy tuzilma hududiy iqtisodiyotning tashqi omillarga qaramligini kuchaytiradi va iqtisodiy barqarorlikni zaiflashtiradi. Shu sababli hududiy rivojlanish strategiyasida iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytirish, yangi o'sish nuqtalarini shakllantirish va xizmatlar sektorini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi lozim.

Hududiy rivojlanish jarayonlarida demografik omillar, xususan mehnatga layoqatli aholi ulushi va bandlik darajasi muhim rol o'ynaydi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2015–2024-yillarda doimiy aholi soni barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, bu hududiy mehnat resurslari salohiyatining ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, iqtisodiyotda band aholining yillik o'rtacha soni ham hududiy iqtisodiy faollikni shakllantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Demografik dividend mavjud hududlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari tezroq shakllanishi kuzatiladi, chunki mehnat resurslari ulushining yuqoriligi ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va xizmatlar sektorini rivojlantirish imkoniyatlarini oshiradi. Aksincha, demografik yuklama yuqori bo'lgan hududlarda iqtisodiy resurslar asosan ijtimoiy xarajatlarga yo'naltiriladi, bu esa investitsiya faolligini cheklaydi. Shu bois hududiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda inson kapitalini rivojlantirish va demografik resurslardan samarali foydalanish muhim metodologik yo'nalish sifatida qaraladi.

Hududiy rivojlanish strategiyasini takomillashtirish jarayonini tizimli asosda yoritish uchun integratsion metodologik modelni shakllantirish zarur. Mazkur model hududiy rivojlanishga ta'sir etuvchi asosiy omillar - institutsional muhit, strategik boshqaruv mexanizmlari, iqtisodiy omillar, demografik resurslar hamda inson kapitalining o'zaro bog'liqligini yagona tizim sifatida talqin etishga imkon beradi. Ushbu yondashuv hududiy rivojlanish jarayonlarini alohida omillar yig'indisi sifatida emas, balki bosqichma-bosqich shakllanuvchi ko'p darajali va ko'p omilli tizim sifatida ko'rib chiqishni nazarda tutadi.

Integratsion metodologik model hududiy iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlovchi ichki va tashqi omillar o'rtasidagi funksional aloqalarni aniqlashga xizmat qilib, rivojlanish jarayonining mantiqiy ketma-ketligini - institutsional sharoitlardan boshlab strategik boshqaruv orqali iqtisodiy va demografik omillarni safarbar etish hamda yakunda hududiy raqobatbardoshlik va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish bosqichlarini tizimli ravishda ifodalaydi (3-jadval).

Jadval ma'lumotlari hududiy rivojlanish strategiyasini takomillashtirish jarayoni izchil bosqichlardan iborat kompleks metodologik tizim ekanini ko'rsatadi. Modelning birinchi bosqichi sifatida institutsional muhit hududiy rivojlanishning boshlang'ich sharti vazifasini bajaradi, chunki boshqaruv sifati, hududiy siyosat mexanizmlari va tartibga solish tizimi resurslarni taqsimlash hamda strategik qarorlar qabul qilish samaradorligini belgilaydi. Ikkinchi bosqich - strategik boshqaruv bloki - ushbu institutsional asosni rivojlantirib, integratsion siyosat, hududiy rejalashtirish va aqlli ixtisoslashuv orqali barcha omillarni yagona rivojlanish maqsadlariga yo'naltiradi. Shu tariqa, jadvaldagi dastlabki ikki bosqich hududiy rivojlanishning tashkiliy va strategik poydevorini shakllantiruvchi omillar sifatida talqin etiladi.

3-jadval. Hududiy rivojlanish strategiyasini takomillashtirishning integratsion metodologik modeli³

Model bosqichi	Tarkibiy blok	Asosiy komponentlar	Funksional vazifasi	Kutilayotgan natija
1-bosqich	Institutsional muhit	Boshqaruv sifati, hududiy siyosat mexanizmlari, tartibga solish tizimi	Hududiy rivojlanish jarayonlari uchun tashkiliy-institutsional sharoitlarni shakllantirish, resurslarni muvofiqlashtirish	Investitsion muhit barqarorlashuvi, boshqaruv samaradorligining oshishi
2-bosqich	Strategik boshqaruv bloki	Integratsion siyosat, hududiy rejalashtirish, aqlli ixtisoslashuv	Institutsional, iqtisodiy va demografik omillarni yagona strategik maqsadlar asosida integratsiyalash	Hududiy rivojlanish siyosatining tizimliliigi va izchilligi
3-bosqich	Iqtisodiy omillar	Diversifikatsiya darajasi, investitsiyalar hajmi, tarmoqlar tuzilmasi	Iqtisodiy bazani kengaytirish, yangi o'sish nuqtalarini shakllantirish va tarmoqlararo muvozanatni ta'minlash	Iqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqarish salohiyatining ortishi
4-bosqich	Demografik omillar	Mehnat resurslari, bandlik darajasi, demografik dividend	Inson kapitali salohiyatini rivojlantirish va mehnat bozori faolligini oshirish	Uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish resurslarining shakllanishi
5-bosqich	Inson kapitali	Ta'lim sifati, malaka darajasi, innovatsion salohiyat	Innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi mehnat resurslarini shakllantirish	Innovatsion rivojlanish va texnologik yangilanish
6-bosqich	Hududiy raqobatbardoshlik	Iqtisodiy barqarorlik, investitsion jozibadorlik, innovatsion rivojlanish	Integratsiyalashgan omillar ta'sirida hududiy iqtisodiy tizimning raqobat ustunliklarini mustahkamlash	Hududlar o'rtasidagi tafovutlarning qisqarishi, raqobatbardoshlikning ortishi
7-bosqich	Yakuniy natija - Barqaror iqtisodiy o'sish	Uzoq muddatli hududiy rivojlanish trajektoriyasi	Barcha omillar integratsiyasi orqali barqaror va muvozanatli hududiy rivojlanishni ta'minlash	Barqaror iqtisodiy o'sish va hududiy rivojlanishning izchil modeli

Modelning uchinchi va to'rtinchi bosqichlarida iqtisodiy hamda demografik omillar hududiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy omillar - diversifikatsiya darajasi, investitsiyalar hajmi va tarmoqlar tuzilmasi - hududiy iqtisodiyotning ishlab chiqarish bazasini kengaytirib, yangi o'sish nuqtalarini shakllantiradi hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Demografik omillar esa mehnat resurslari salohiyati, bandlik darajasi va demografik dividend orqali iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli resurs bazasini yaratadi. Bu bosqichlarda inson kapitalining alohida ajratilishi bejiz emas, chunki ta'lim sifati, malaka darajasi va innovatsion salohiyat iqtisodiy diversifikatsiya va texnologik modernizatsiyaning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Natijada iqtisodiy va demografik komponentlarning uyg'unligi innovatsion rivojlanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Jadvalda keltirilgan beshinchi va oltinchi bosqichlar integratsiyalashgan omillar ta'sirining natijaviy bosqichini aks ettiradi. Inson kapitali rivojlanishi innovatsion faoliyatni rag'batlantirib, yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarni kengaytiradi, bu esa hududiy iqtisodiy tizimning sifat jihatidan yangilanishiga olib keladi. Ushbu jarayonning mantiqiy davomi sifatida hududiy raqobatbardoshlik shakllanadi, ya'ni iqtisodiy barqarorlik, investitsion jozibadorlik va innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlari oshadi. Natijada hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar qisqarib, hududiy iqtisodiy tizimning moslashuvchanligi va barqarorligi mustahkamlanadi.

Yakuniy bosqich sifatida barqaror iqtisodiy o'sish modelning umumiy natijaviy ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Barcha omillar integratsiyasi orqali hududiy rivojlanishning uzoq muddatli trajektoriyasi shakllanadi va muvozanatli iqtisodiy o'sishga erishish imkoniyati yuzaga keladi. Shu jihatdan, jadvalda aks ettirilgan bosqichlar o'zaro ketma-ketlikda harakat qilib, hududiy rivojlanish strategiyasini takomillashtirish jarayonini konseptual jihatdan asoslaydi. Mazkur yondashuv hududiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda alohida omillarni emas, balki institutsional, iqtisodiy va demografik determinantlarning integratsiyalashgan tizimini hisobga olish zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

3 Muallif tomonidan shakllantirilgan



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada O'zbekiston hududiy rivojlanish strategiyasini takomillashtirishning metodologik yo'nalishlari kompleks tahlil qilindi. Tahlil natijalari hududiy rivojlanish darajasi respublika bo'yicha umumiy ijobiy dinamikaga ega bo'lsa-da, hududlar kesimida sezilarli notekislik saqlanib qolayotganini ko'rsatdi. Yalpi hududiy mahsulot hajmlaridagi farqlar, sanoat ishlab chiqarishi va investitsiya faolligining hududiy konsentratsiyasi "o'sish markazlari" hamda "periferik hududlar" o'rtasidagi tafovutlarning iqtisodiy makonda izchil qayta ishlab chiqarilayotganini anglatadi. Shu bilan birga, iqtisodiy diversifikatsiya va xizmatlar sektorining rivojlanganligi yuqori hududlarda barqaror o'sishning muhim manbai sifatida namoyon bo'ldi, investitsiya ulushining ayrim hududlarda pasayishi esa modernizatsiya sur'atlarini sekinlashtiruvchi omil ekanligi asoslandi. Demografik omillar, xususan mehnat resurslari salohiyati va inson kapitali sifati hududiy iqtisodiy faollikning uzoq muddatli drayveri sifatida ko'rib chiqildi.

Tadqiqotning metodologik xulosasi shundan iboratki, hududiy rivojlanish strategiyasini takomillashtirish alohida instrumentlar majmuasi emas, balki institutsional muhit, strategik boshqaruv, iqtisodiy omillar, demografik resurslar va inson kapitalining o'zaro bog'liq integratsion tizimi sifatida qurilishi zarur. Bu yondashuv hududiy siyosatni "yagona standart" tamoyili asosida emas, balki hududlarning resurs salohiyati, tarmoqlar tuzilmasi va demografik xususiyatlariga mos differensial strategiyalar asosida shakllantirishni taqozo etadi.

Aniqlangan hududiy tafovutlar, iqtisodiy tuzilmaning hududlar kesimida turlicha diversifikatsiyalashgani, investitsiya faolligining notekis taqsimlanganligi hamda demografik resurslardan foydalanish samaradorligidagi farqlarni inobatga olgan holda quyidagi amaliy takliflar tavsiya etiladi:

hududiy siyosatda institutsional islohotlar ustuvorligini kuchaytirish, hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish va "yagona darcha" mexanizmlarini hududlar kesimida bir xil standartlarda joriy etish lozim;

iqtisodiy diversifikatsiyani rag'batlantirish orqali monotarmoq hududlarning tashqi shoklarga zaifligini kamaytirish, xizmatlar sektorini kengaytirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarish yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash zarur;

investitsiya resurslari hududlar bo'yicha muvozanatli taqsimlanishini ta'minlash, past investitsiya ulushiga ega hududlarda infratuzilma va sanoat loyihalarini "katalizator paket" tamoyili asosida jadallashtirish maqsadga muvofiq;

demografik dividend imkoniyatlarini iqtisodiy natijaga aylantirish uchun bandlikni oshiruvchi mahalliy klasterlar, kasbiy tayyorgarlik va inson kapitaliga yo'naltirilgan dasturlar hududiy strategiyalarning majburiy komponentiga aylantirilishi zarur.

Integratsion metodologik model hududiy tafovutlarni kamaytirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ilmiy-amaliy asoslarini kengaytiradi. U hududiy rivojlanish determinantlarini yagona tizimda uyg'unlashtirib, resurslarni muvozanatli taqsimlash, iqtisodiy diversifikatsiyani chuqurlashtirish hamda institutsional va demografik salohiyatdan samarali foydalanish imkonini beradi. Natijada hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklar bosqichma-bosqich qisqarib, hududiy iqtisodiy tizimning raqobatbardoshligi va uzoq muddatli barqaror o'sish sur'atlari mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Barca, F. (2019). Place-based policy and regional development: The role of local governance. Routledge.
2. Boschma, R. (2017). Relatedness as driver of regional diversification: A research agenda. *Regional Studies*, 51(3), 351–364.
3. Crescenzi, R., & Rodriguez-Pose, A. (2016). Innovation and regional growth in the European Union. *Growth and Change*, 47(4), 653–672.
4. Foray, D. (2018). Smart specialization: Opportunities and challenges for regional innovation policy. Routledge.
5. Gosavi, A., Sharma, P., & Tiwari, R. (2016). Sustainable development challenges in the Himalaya region: A review. *Asian Journal of Environment & Development*, 23(4), 199–215.
6. McCann, P. (2016). The UK regional-national economic problem: Geography, globalisation and governance. Routledge.
7. Milliy statistika qo'mitasi statistik to'plamlari
8. OECD. (2020). A territorial approach to the Sustainable Development Goals: Synthesis report. OECD Publishing.
9. Ozkan, M., & Schott, J. (2013). Regional cooperation and sustainable development in the Arctic. *Polar Record*, 49(3),
10. Rodrik, D. (2017). Straight talk on trade: Ideas for a sane world economy. Princeton University Press.
11. Storper, M. (2018). Keys to the city: How economics, institutions, social interaction, and politics shape development. Princeton University Press.
12. Маъмуров Б.Х. (2016) Государственная поддержка инновационной активности системы предпринимательства // Технологии информационного общества. – С. 318-319.
13. Маъмуров, Б. (2023). Худудларда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш стратегияси ва истиқболлари. *Nashrlar*, 1(1), 326–329. <https://doi.org/10.60078/2023-vol1-iss1-pp326-329>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
